



Kichik korxonalarni rivojlanish strategiyasini shakillantirishning nazariy xususiyatlari

Boboyeva Shoir Shoniyozovna

O'zbekiston Respublikasi Bank -Moliya Akademiyasi

70411302 – “Biznesni boshqarish(General)”

magistratura mutaxassisligi bo'yicha

+998 99 756-39-29

+998 33 756-39-29

Annotatsiya: Tadqiqotda kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati, iqtisodiyotdagi o'рни, tadbirkorlik turlari va shakllari, xorijiy mamlakatlarda hamda O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi, shuningdek, kichik biznes faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish, tahlil qilish, boshqarish va tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, davlat, kichik biznes, tadbirkorlik, bozor, xususiy sektor, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, foyda, xo'jalik.

Biz yashayotgan dunyo yanada murakkab, raqobatbardosh va texnologik jixatdan rivojlangan va har doim resursga talab mavjud. Bordini bu resurslardan to'g'ri foydalanmasa, bu yomon natijaga olib keladi. Texnologiya resurslardan unumli foydalanish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan komponentdir. Ammo tashkilot xodimlari ko'pincha yangilikga ko'nika olmaydi va texnologiya mashinasiga qarshilik ko'rsatadi. Tashkilotga yangi texnologiya va vositalarni joriy etish samaradorlikni oshirish, sotishni oshirish va



yaxshilash, shuning bilan birgalikda tezkor qarorlar qabul qilishga yordam berishi mumkin. Ammo kichik korxonalarda xodimlarning yangi texnologiyaga moslashish ko'nikmasi darajasi qiyin kechadi. Ayniqsa kichik korxonalarda yangilikni qabul qilish darajasi oson emas. Har qanday tashkilot doimo texnologiyaga moslashish muommosiga duch keladi va bu o'zgarishlarni yengib o'tish xodimlarga bog'liq bo'ladi. Bu borada xodimlarning zukkolik darajasi qo'l keladi. Jarayonni kuzatayotgan raxbar tomonidan xodimlarga berilishi kerak bo'layotgan rag'batlantirish albatta o'z samarasini beradi va bu menga mashxur iqtibosni eslatadi.

“Siz moslasha oladigan tashkilotni qura olmaysiz. Moslashuvchan odamlar va shaxslar faqat kerak bo'lganda yoki o'zlari xoxlaganlaridagina o'zgaradilar.” (Gary Hamel) Gary Hamelga ko'ra, odamlar faqat kerak bo'lganda yoki xoxlaganlarida o'zgaradilar va Motivatsiya odamlarni o'zgartirishga yoki texnologiya mashinasiga undaydigan omildir. Motivatsiya-bu tashkilotni muvaffaqiyatga olib chiqadigan va xodimlar salohiyatini oshirish, o'z kasbini egasi bo'lishiga olib keladigan omildir. Garchi korxonada eng yaxshi texnologiyalar mavjud bo'sada xodimlar salohiyati yetarli bo'lmasa ish samaradorligi o'zgarmaydi.

O'zbekistonda ro'yxatga olingan Kichik va o'rta biznes korxonalarining soni 202 000 taga yetdi. Ularning 57,7% ishlab chiqarish, 42,3% noishlab chiqarish tarmoqlariga to'g'ri keladi. Ular ishlab chiqargan mahsulot mamlakat YAIMning 24,5% ni tashkil etdi, jami ish bilan band aholining 53% shu biznes sohasida ishladi (2002).

Bugungi kunda yurtimizda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, ularning faoliyatidan kelib chiqayotgan muammo va to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha kompleks choralar ko'rilib, sohani rivojlantirish va uning huquqiy himoyasini ta'minlash borasida barcha zarur tashkiliy va huquqiy mexanizmlar yaratilmoqda.



Xususan, mazkur sohani rivojlantirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 sentyabrdagi **“Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PQ–306-son qarori bilan **Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturi** qabul qilingan. Yuqoridagi qarorlar albatta tadbirkorlarni bir muncha tezkor xarakat qilishga yordam berdi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik korxonalarni rivojlanish strategiyasini shakllantirish tahlili iqtisodiyotning drayver sohalaridan biri hisoblanadi. Sohada norasmiy iqtisodiyot ulushi yuqori darajada qo‘llanmoqda va natijada O‘zbekiston kichik korxonalarni rivojlanish strategiyasini shakllantirish tahlili bo‘yicha MDH davlatlari orasida eng quyi o‘rinlardan birida.

“Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinganiga salkam 12 yil (2012 yil 26 aprelda qabul qilingan) bo‘ldi. Lekin kichik biznesning mazkur tashkiliy-huquqiy shakli ommalashmadi.

Tadbirkorlik subyektlarining 73,7 foizi (298 338 ta) ma‘suliyati cheklangan jamiyat shaklida, 14,5 foizi (58 533 ta) xususiy korxona shaklida, 10,7 foizi (43 327 ta) oilaviy korxona shaklida, 1,1 foizi (4478ta) boshqa tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari yildan-yilga o‘z mavqeini mustahkamlab bormoqda. Ular mahalliy xomashyo asosida eksportga yo‘naltirilgan yoki import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, iste‘mol bozorini sifatli tovarlar bilan to‘ldirish, aholini ish bilan ta‘minlash, shuningdek, jamiyatga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashda katta foyda keltiradi.

Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning yaqinda tasdiqlangan farmonida quyidagicha ta‘kidlangan:



“Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarini saqlash, shu jumladan milliy valyuta kursi barqarorligini va ichki bozorda narxlar darajasini ta‘minlash – bu bizning eng muhim ustuvor vazifamiz.”

Shuningdek, 2022—2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo‘nalishi – “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash” maqsadi quyidagicha belgilangan:

Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish;

Kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko‘rilishi.

Shunga ko‘ra, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish, xususiy mulk huquqlarini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada mustahkamlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq:

-Xususiy mulk huquq va kafolatlarining ishonchli himoyasini ta‘minlash;

-Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivojiga to‘sqinlik qiluvchi barcha cheklovlarni bartaraf etish;

“Agar xalq boy bo‘lsa, davlat boy va kuchli bo‘ladi” tamoyilini amaliyotga joriy etish.

Ushbu chora-tadbirlar soliq va kredit imtiyozlari bilan bir qatorda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish hamda institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirishni nazarda tutadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni ishonchli qo‘llab-quvvatlaydigan o‘rta sinfni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.



O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq:

“Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) – belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Hulosa qilib shuni aytishim mumkinki, O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim qismi hisoblanadi. Ularning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun moliyaviy resurslar, qulay tadbirkorlik muhiti, texnologik rivojlanish va talim tizimini takomillashtirish zarur. Bu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O‘zbekiston iqtisodiyotining mustahkam asosiga aylanadi. Shunday qilib, olib borilgan izlanishlar kichik biznesni samarali rivojlantirish strategiyalarini shakllantirishda muhim nazariy va amaliy asos yaratdi.

Shu bilan birga, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash borasida bir qator mamlakatlarning tajribasi o‘rganildi. 2024 yildagi eng yaxshi kichik biznes statistikasiga ahamiyat qaratayotgan bo‘lsak:

- AQSHda 33.3 million kichik biznes mavjud;
- Kichik biznes har yili yangi ish o‘rinlarining 64 foizini tashkil qiladi va har yili AQSHda 1.5 million ish o‘rni yaratiladi;
- AQSHda korxonalarning 99.9 foizini kichik biznes (250 dan kam xodimga ega korxonalar);
- 60% o‘z ustida ishlaydi va korxona raxbari bo‘lishga harakat qiladi;
- Kichik biznesning 50% birinchi besh yil ichida muvaffiqiyatsizlikka uchraydi;



- Kichik biznesning 65% dan ortig'i daromad keltiradi;
- Dunyo miqyosida barcha kompaniyalarning 90% kichik biznesdir va ular ish o'rinlarini 50% tashkil qiladi;
- Butun dunyo bo'yicha 400 million kichik biznes o'z faoliyatini yuritmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 20.04.2022 yildagi O'RQ-765- son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" (yangi tahriri) Qonuni, 02.05.2012-yildagi O'RQ-328-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
4. Кучкаров, Б. К. (2022). РОЛЬ МИКРОФИНАНСИРОВАНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА. CENTRAL ASIAN Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 =
5. Вертушина О.Л. Кредитование физических и юридических лиц: учебник. – М.: Экономика и финансы, 2017 – 119 с.
- 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(4), April, 2023 43 JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES, 3(10), 78-83.